

**BUXORO XONLIGIDA AYOLLARNING MULKKA EGALIK MASALALARI
WOMEN'S PROPERTY OWNERSHIP IN THE BUKHARA KHANATE**

Sangirova Diloram Xujamkulovna

Guliston davlat universiteti dotsenti

Artikova Dilnavoz

4-kurs talabasi

Annotation. *This article explores one of the important yet understudied aspects of Central Asian history — women's ownership and management of waqf (endowed) property. Using the case of the Bukhara Khanate, the study examines women's rights to own waqf property, its socio-economic significance, their participation in the waqf process, and the forms of administration involved. The article highlights the role of women in the waqf institution from the perspective of promoting their economic independence, strengthening their social status, fostering charitable activities, and contributing to the spiritual and cultural development of society. The findings of this research aim to expand and deepen existing knowledge about women's socio-economic activities in the history of Central Asia.*

Keywords: *Bukhara Khanate, women, waqf, property ownership, social life, charity, mosque, madrasa, historical architecture.*

Annotasiya. *Mazkur maqola Markaziy Osiyo tarixining muhim va kam o'rganilgan qirralaridan biri – ayollarning vaqf mulkiga egalik qilish va uni boshqarish masalalarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida Buxoro xonligi misolida ayollarning vaqf mulkiga egalik qilish huquqi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, vaqf jarayonidagi ishtiroki va boshqaruv shakllari ko'rib chiqiladi. Maqolada ayollarning vaqf institutidagi roli ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, xayriya faoliyatini rivojlantirish va jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga qo'shgan hissa nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo tarixida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga oid mavjud bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Buxoro xonligi, ayollar, vaqf, mulkchilik, ijtimoiy hayot, xayriya, masjid, madrasa, tarixiy inshoot.*

Buxoro xonligida ayollarning ko'chmas mulkka, jumladan vaqf mulkiga egalik qilish huquqi va uni boshqarish jarayonlari o'rta asr davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo tarixida ayollarning mulkka egaligi masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular ko'pincha an'analar, shariat qonunlari va mahalliy urf-odatlar asosida olib borilagan. Shariatga ko'ra, ayollar meros olish huquqiga ega bo'lib, o'z mulklarini mustaqil boshqarish, sotish yoki hadya qilish huquqiga ega bo'lsalar-da, bu ko'pincha

oilalari a'zolarining, ayniqsa erkaklarning nazorati ostida amalga oshirilgan³⁰. Bunday mulklar vaqf mulklari deb yuritilgan.

Vaqf- islom shariatiga Qur'on, sunnat va ijmo' bilan sobit bo'lib kirgan mustahab amal hisoblanadi. Vaqf so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "tutib turish", "to'xtatish" ma'noni anglatadi. Vaqf-narsani Alloh mulki hisobida saqlashdir. Ya'ni, vaqf gilingan narsa vaqf qiluvchining mulkidan chiqadi va Alloh mulkiga aylanadi. Vaqf qilingan narsadan keladigan foyda vaqf qiluvchi tomonidan belgilangan manzilga (masalan, talabalar, musofirlar, kambag'allarga) sarf qilinadi va savobi vaqf qiluvchiga abadiy qoladi, hatto o'limidan keyin ham yetib turadi. Vaqf qilingan narsa sotilmaydi, hadya qilinmaydi, meros bo'lmaydi. Mulkni vaqf qilishda erkaklar bilan birgalikda ayollar ham o'z o'rniga ega.

Markaziy Osiyo tarixida vaqf mulkchiligiga egalik qilish huquqi ayollarga ham berilgan. Professor M.Subtelning qayd etishicha, temuriy ayollar o'z mulklarini xayriy ishlarga jumladan, binolarga vaqf qilganlar³¹. Voqifa – (vaqf mulkiga ega bo'lgan ayollar) orasida Amir Temurning rafiqalari Saroy Mulkxonim, Tuman Og'a, Xalil bin Mironshohning qizi Saroy Mulk Og'a, Umarshayxning rafiqasi Malikat Og'a, Shohruh Mirzoning ayollari Gavharshod va To'ti Og'a, Sulton Husayning rafiqalari Zubayda O'g'a va Ofoq Begim, onasi Feruza Sulton Begim hamda qizi Xonim Sulton Begimlar bo'lganligi manbalarda qayd etilgan³².

Buxoro amirligida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vaqf mulklari salmog'i ortib borganligini arxiv hujjatlari ko'rsatib beradi. Arxiv hujjatlarida XIX -XX asrlarda qilingan vaqf yerlarining taxminan 25 foizi ayollar hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rsatadi. Ayollar tomonidan yer, hovli-joy, do'kon, ko'chmas mulklar qatorida pul mablag'lari ham vaqfqa aylantirilgan. Shu bilan birga tadqiq etilayotgan davrlarda ayollarning xususiy mulkka ega bo'lganliklari va mulkiy munosabatlarda ishtirok etish huquqidan foydalana olganliklari bilan izohlanadi.

Ayollarga mol-mulk asosan otalari, aka-ukalari va turmush o'rtoqlaridan meros qolgan. Ulardagi mulklarning bir qismi nikoh vaqtidagi er tomonidan berilgan maxr hisobidan hosil bo'lgan. Shariatda ayolning turmush o'rtog'i vafot etgan bo'lsa nikoh shartnomasiga ko'ra undan qolgan mulkka ham egalik qilish huquqi berilgan.

Odatda ayollar vaqf mulklarini erkak vakil orqali ta'sis etganlar. Ayollarning nomlaridan o'g'illari, turmush o'rtoqlari va guzar oqsoqollari qozixonaga kelib vakil sifatida ishtirok etgan. Nargiza Ismatovanning bergan ma'lumotiga ko'ra, 1307 (13-sentabr 1909) yilning 28- sha'bon oyida Buxoro shahri qozixonasida qayd etilgan vaqf hujjatida Zuhraoy Jo'rabek qizining sha'riy vakili Qori Mirvaqo Qori Mir Asomiddin

³⁰ Sangirova D.X. Ashtarxoniylar xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. –İzmir, Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155

³¹ Subtelny M.E. Timurids in Transition. Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden-Boston: Brill, 2007. –P. 156-157.

³² Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlari) –T.: Sharq, 2020. – B. 22

o'g'li orqali o'ziga tegishli bo'lgan hovlini Buxoro shahridagi Xoji Omonboy guzariga vaqf qildirgani ma'lum bo'ladi³³.

Ayrim hollarda, ayollar hech qanday vakilsiz bevosita o'zlari qozixonada rasmiylashtirish jarayonlarida ishtirok etgan holatlar ham ko'p uchraydi. 1327 (19- iyun -18-iyul 1909) yilning jumodul –soniy oyida tuzilgan hujjatga ko'ra, Sharofat Begim ismli ayol Buxoro shahar qozixonasiga kelib o'z hovlisini Labi Rudi Madarixon guzari masjidiga vaqf qilganiga iqror bo'lgan. Hujjatlarni o'rganish tahlili shuni ko'rsatadiki, voqifa ayollarning yoshlari o'rta va keksa bo'lgan.

Jamiyatlardagi boy va obro'li xonadon vakillari vaqfnomalari o'zining tashqi belgisi, muhrlarning ko'pligi bilan ajralib turgan holda, ularning ismlari oldidan iffat-panoh, soadat – pesha, saxovat – andisha kabi sifatlarni qo'shib qayt qilish holatlari ham uchraydi. Shaxsni tavsiflovchi epitetlarni quyida keltirilgan misollarda uchratish mumkin: 1323 (6-may-4-iyun 1905) yilning rabiul – avval oyida Buxoro qozixonasida tuzilgan vaqf hujjatida aqidat- vo'fur Mirzo Abdulg'afur Hoji Mirzo o'g'li iffat-panoh Aqifaoy Mirzo Umar qizi nomidan sha'riy vakil sifatida muvakkiliga tegishli bo'lgan Buxoroning Fayzobod mavzesida joylashgan 8 tanob mulki xaroj yerini voqifa qabridagigi maxsuraxonga vaqf qilgani qayd etilgan. Bu hujjatlarda ismlari qayd etgan ayollar o'ziga to'q hamda obro'li xonadon vakillari ekanligini ko'rsatadi³⁴.

Buxoroda nafaqat yirik yer egasi balki xayr-ehson qilishga imkoni yetadigan ijtimoiy qatlamlar orasida ham mulkini vaqfga aylantirish jarayoni kuzatiladi. Masalan, 1304 (21- avgust – 18 –sentabr 1887) yilning zulhijja oyida qayd etilgan hujjatda Qurbonoy ismli ayol Buxoroning hoji Omonboy guzarida joylashgan hovlisini shu guzar masjidiga vaqf qilgani haqida ma'lumotni yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Aksariyat hollarda ayollar o'z hovli -joylarini vaqf qilganlarida “to hayot ekanlar” mutavalli sifatida o'zlari boshqarishini shart qilganlar. 1313 (21 -avgust 1895) yilning 29- safar kunida qayt etilgan vaqfnomaga binoan Bibikoy Abdulkarimboy qizi Buxoroning Labi Rudi Madarixon guzaridagi hovlisini mashhur guzar masjidida ramozonda Qur'on xatmi uchun vaqf qilib mutavalli sifatida o'zini vafotidan so'ng Mullo Shokir ismli shaxsni mutavalli bo'lishini qayd etib qo'ygan.

Vaqfnomalar orasida ayol voqifa boshqa bir ayolni mutavalli sifatida tayin etgani xususidagi ma'lumotlar ham mavjud. Jumladan, 1913 yilning jumodil-avval maxsuraxon foydasiga tuzilgan vaqf hujjatiga ko'ra, voqifa Hamrohoy Abdurahmonboy qizi vaqfga aylantirgan mulki xaroj yeriga mutavalli etib Oyjonoy Abdug'afforboy qizini tayinlagan. 1912 yilda rasmiylashtirilgan vaqfnomaga binoan voqifa Hamrohoy Obidbek qizi o'zini so'ngra onasi Bibi Komilani mutavalli sifatida tayinlaganligi hujjatlardan ma'lum bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ayollar nafaqat vaqf mulkichiligi haqidagi nazariy

³³ Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIXасрнинг иккинчи ярми- XX аср бошлари)–Т.: Sharq, 2020. – Б. 23

³⁴ Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIXасрнинг иккинчи ярми- XX аср бошлари) – Т.: Sharq, 2020. – Б. 30

bilimlarga ega bo'lganlar, balki vaqf mulklarini tasarruf etish huquqidan ham foydalana olganlar.

Hujjatlar tahliliga shuni ko'rsatadiki, Buxoroda XIX –XX asrda ayollar tomonidan vaqfga aylantirilgan mulklarning taxminan 46,6 foizi yer, 32,2 hovli-joy, 13,3 foizi do'kon, 4 foizi pul mablag'lari hamda 1,3 foizi saroy, tegirmonlar hisobini tashkil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligi tarixida ayyollarning vaqf mulkiga egalik qilishi ayyollar uchun iqtisodiy mustaqillik bergan. Vaqf mulkiga egalik qilish ayyollarning jamiyatdagi mavqeini oshirgan, xayriya orqali jamoatning hurmatiga sazovor bo'lgan. Vaqf mulklaridan kelgan mablag'lar ilm-fan, ta'lim va madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Kitobxonalar, madrasalar va olimlarni qo'llab-quvvatlash aynan vaqf mulki orqali amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sangirova D.X. Ashtarxoni xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. –İzmir. Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155
2. Subtelny M.E. Timurids in Transition.Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran . – Leiden-Boston: Brill, 2007. –P. 156-157.
3. Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIXасрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари)–Т.: Sharq, 2020. – Б. 22
4. Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIXасрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари)–Т.: Sharq, 2020. – Б. 23
5. Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл вокифалар (XIXасрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари)–Т.: Sharq, 2020. – Б. 30
6. Sangirova D. Arxiv hujjatlarida ayollarning mulkka egalik qilish masalasi. “O'zbekistonda arxiv sohasi rivojlanishi istiqbollari va ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to'plami. –Т.: 2020.–В.32-35.
7. Маргилоний, М. А. (1999). Тарихи Азий. Тошкент: Маънавият.
8. Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. *A look at the past*, (18), 27.
9. Sangirova, D. K. (2000). Tarikhi Azizi. *vaznyi istochnik po istorii izucheniya tsarskogo colonial'nogo perioda*.
- 10.Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.
- 11.Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.
- 12.Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

13. [Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. \(2016\). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи \(начало XX века\). Проблемы современной науки и образования, \(11 \(53\)\), 44-45.](#)

14. [Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. \(2022\). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar \(—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida\). Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1\(1\), 631-634.](#)

15. [Мирзаева, Н. \(2011\). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. Каталог авторефератов, 1\(1\), 1-30.](#)

16. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.

17. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.

18. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).

19. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. Социосфера, (4), 226-232.

20. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. Наука и образование: проблемы, идеи, инновации, (4), 26-30.

21. Дубков, В. В., Абдирахатов, Х., Джанибекова, Н. А., & Шодмонкулова, М. (2012). ОДНА ЗЕМЛЯ, ЕДИНОЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВО (Тезисы проекта Идеологии планетарного единства). In ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (pp. 94-99).

22. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.

23. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. История и культура центральной Азии, 1(1), 122-125.

24. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Афригийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. Journal of Fundamental Studies, 1(7), 16-23.

25. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 73-78.

26. Кудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 236.

27. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.

28. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

29. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

30. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

31. Yuldashevich, A. U., Mahmudovich, A. M., & Mengziya o'g'li, J. A. (2021). On the Migration of Turkish People to Turkestan, Molguzar Mountain Systems and Mirzachul (XVIII-First Half of the XIX Century). *European Scholar Journal*, 2(8), 64-65.

32. Алибеков, У., & Умарова, А. (2021). Образ волка в тотемистических и этномифологических воззрениях тюркских народов. *Общество и инновации*, 2(5/S), 39-48.

33. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

34. Алибеков, У. Ю. (2016). Земледельческие обычаи и обряды в этноэкологической культуре народов Узбекистана. *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 46-47.

35. Кудратов, С. С. (1992). Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): Дис.... канд. ист. наук. СПб.

36. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).

37. Кудратов, С. (2022). Археологик ёдгорликлар–ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантиришнинг муҳим омили. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 363-366.

38. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

39. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

40. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

41. Alibekov, U., & Rayimjonov, I. (2024). TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI XIX ASR SHARQSHUNOSLARINING TALQINIDA. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 267-270.

42. Xoshimjon o'g'li, R. I. (2024). 8.4 MOVAROUNNAHRGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UYG'ONISH DAVRINING BOSHLANISHI. *Innovative technologies in construction Scientific Journal*, 8(1), 12-15.

